

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

YANVAR

ANDIJON, 2025

BAXSHIYONA JANRIDA YOZILGAN SHE'RLARDA LIRIK KECHINMA TABIATI

Abduraxmonova Sitora Baxtiyor qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti

1-kurs magistranti

sitoraabduraxmonova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada lirik kechinma va uning tabiatini baxshiyona janrida yozilgan she'rlar misolida tasvirlanadi bunda Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva va Hamid Olimjon baxshiyonalari misol tariqasida tahlilga olinadi. Maqolada, har bir shoirning o'ziga xos uslubi va lirikasi, shuningdek, ularning asarlarida insonga xos his-tuyg'ular, ijtimoiy muammolar va qadriyatlar qanday aks etganligi tasvirlanadi. Usmon Azimning she'rlaridagi samimiy histuyg'ular, Halima Xudoyberdiyevanining ayol va ona mavzusidagi lirik kechinmalari, Hamid Olimjonning esa umidsizlik va iztiroblar haqidagi dardli ifodalari o'rganiladi. Ushbu asarlar orqali, baxshiyona janrining dolzarbliji va uning inson ruhiyatiga ta'siri ko'rsatiladi. Maqola, shuningdek, lirik kechinmalarni o'z ichiga olgan baxshiyona she'rlarining xalq og'zaki ijodidagi o'rni va ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Baxshiyona, lirik kechinma, insoniy his-tuyg'ular, ijtimoiy muammolar, qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi, an'analar, madaniyat.

Annotation: This article describes lyrical experiences and their nature through the example of poems written in the bakhshiyana genre, analyzing the works of bakhshiyana Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva, and Hamid Olimjon. The article analyzes the unique style and lyricism of each poet, as well as how human emotions, social problems, and values are reflected in their works. The sincere feelings in Usman Azim's poems, Halima Khudoyberdiyeva's lyrical experiences on the theme of women and mothers, and Hamid Olimjon's painful expressions of despair and suffering are studied. Through these works, the relevance of the bakhshiyona genre and its impact on the human psyche are shown. The article also reveals the role and significance of bakhshiyona poems, which contain lyrical experiences, in folk oral art.

Key words: Bakhshiyona, lyrical experience, human emotions, social problems, values, folk oral art, traditions, culture.

Kirish. Baxshiyona janrida yozilgan she'rlar ko'plab lirik kechinmalarni o'z ichiga oladi. Bu janr, asosan, xalq og'zaki ijodining bir qismi bo'lib, unda inson his-tuyg'ulari, sevgisi, qayg'usi va hayotdagi turli holatlar tasvirlanadi. Har bir davr adabiyotda mohiyati, ma'no-mazmuni bilan o'z nafasini qoldiradi. Hozirgi davr o'zbek she'riyati ham adabiyotimiz gulshanida o'zining salmoqli o'rniga egadir. Bugunning shoir va shoiralari she'riy asar yaratishda butunlay yangicha ruh va kayfiyat bilan qalam tebratmoqdalar. Yaratilayotgan har bir yangi ijod mahsuli shaxs ruhiyati, uning ichki kechinmalarining yorqin ifodachisi bo'ladi. Istiqlol davr she'riyatining boshqa davrlar she'riyatidan farqli jihat shundaki, bu davr she'riyatida milliy o'zlikni anglash, erkin fikrlash ruhi yetakchilik qiladi. XX asrning 60-yillari o'rtasi va 70-yillarning boshlarida she'riyatimizga yangi to'lqin, yangi avlod kirib keldi. Bular -Shavkat Raxmon, Muhammad Yusuf, Usmon Azim, Azim Suyun, Halima Xudoyberdiyeva, Xurshid Davron, Toxir Qahhor, Matnazar Abdulhakim, Ismoil To'lak, Asqar Qosimov singari iste'dodlar edi. Xalq og'zaki ijodi o'zining betakror tarovati, o'ziga xos usuli bilan insonlar qalbidan chuqr joy egallab kelmoqda. Shunday yozuvchi, shoirlarimiz borki, xalqona ohang, xalqona usul ular ijodining bir bezagi bo'lib xizmat qiladi. O'zbek adabiyotida folklor ta'siri natijasida juda ko'plab asarlar, she'rlar yaratildi. Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva va Hamid Olimjon ijodida bir qancha baxshiyona asarlar mavjud. Usmon Azim ijodini kuzatar

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

YANVAR

ANDIJON,2025

ekanmiz uning “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlariga mehri bo‘lakchaligiga guvoh bo‘lamiz.(T. Shermurodov.2011.204)

Hayotdagи voqea xarakterli voqea hodisalar ijodkorning diqqat-e’tiborini tortib, qalbu shuuriga o‘rnashib oladi, unga orom bermaydi, uning hayoti va faoliyatidagi o‘y surish, mulohaza yuritish muvozanatini buzadi. San’atkorning qalbini zabit etgan, uning oromini, huzurhalovatini buzgan ruhiy holat lirik kechinma deb ataladi. (H.Ahmedov, 2022, 123) Lirik kechinma shoirning sevgi, vafo sadoqat kabi fazilatlar, vatan, xalq singari muqaddas tushunchalar bilan uyg‘unlashadi. Hissiyot va tuyg‘uning ifodasi bo‘lgan lirik kechinma she’rda qanchalik kuchli ifoda etilsa, kitobxon kayfiyatiga ta’sir o‘tkaza olsa shoirning iste’dodidan darakdir. Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva, Hamid olimjon kabi mahoratli ijodkorlarimiz baxshiyonalarida hodisalardan ta’sirlanish sababli paydo bo‘lgan lirik kechinmalarni turlicha tasvirlariga guvoh bo‘lamiz.

“Boychibor bo‘lmaganida Alpomish bo‘lmaganidek, she’riyat bo‘lmaganida Usmon Azim ham bo‘lmasdi. Bugungi o‘zbek she’riyatida “shoir” ko‘p, shoirlarning alplari bor. Lekin she’riyatning 90 alpini bir joyga yig‘sang, ularning barchasini faqat “Iste’dodga sadoqat”i va dilining barkamolligi bilan dog‘da qoldiradigan, barcha alplarni yenggan Alpomishdek qudratga ega bo‘lgan, xalq bahodiriga ildiz bo‘lgan, uning mardligini diliga ko‘chirgan uyg‘oq shoiri – Usmon Azimi bor”. “Baxshiyona” uch qismdan iborat bo‘lib, har bir qism o‘zining xususiy va umumiyligi jihatlariga ega. Masalan, dastlabki qismdagi sakkiz dramatik ballada chuqur mantig‘i, falsafasi bilan, ikkinchi qismdagi “Baxshiyona” turkumi xalqona ruhi bilan, so‘nggi uchinchi qism esa yaxlit holdagi yirik bir badiiy asarligi va undagi mazmunning o‘ziga xosligi bilan o‘zaro farqlanadi. “Baxshiyona” Usmon Azim ijodida xalqona yo‘nalishdagi she’riy asarlar va folklorga monand ijod etish uslubi muhim ahamiyat kasb etishini yana bir bora dalillaydi. Turkumdagи she’rlar har tomonlama: g‘oyasi, usuli, shakliy tuzulishi, umuman, kompozitsion qurilishi bilan xalq og‘zaki ijodi namunalarini yodga soladi. Satrlardagi soddalik, samimiylik, ohangning o‘ynoqiligi, bayon etish usuli xalqonadir. Mutolaa qilarkansiz o‘zingizni butun boshli xalq dostonlari, lapar-u qo‘shiqlari og‘ushida orom olgandek his qilasiz. Negaki, bu turkum she’rlarda folkloarning eng yetakchi, eng muhim va ta’sirchan g‘oyalari, motivlari, ohanglari, mohirona, zamonaviy ifodalananadi.

She’rlarda turkum doirasidagina an’anaviy bo‘lgan Elbek baxshi, Elomon, Oq botir, Qorabotir, Alpomish, Barchin, Qaldirg‘och kabi bir qator obrazlar ishtirok etadiki, sinchkovlik bilan e’tibor berilsa, muallif obrazlarning deyarli har birida o‘ziga xos bir ramziylikni ifodalashga xarakat qilganini sezish qiyin emas. Masalan, o‘z eli, vatani uchun fido bo‘lishga, jonini berishga, xatto haqiqatning ko‘ziga tik qarashga tayyor vafodor insonlar Oq botir timsolida, unga qarama-qarshi tomon vakillari esa Qora botir nomi ostida birlashtirilgan. Yoki ushbu ikki obraz yuqoridagilarni mantiqan o‘z mezonlari mexvariga qamrab oladi.

Usmon Azim she’rlari orqali murakkab ruhiy holatlarning mohir rassomi sifatida gavdalanib, o‘zbek she’riyatida lirik kechinma tasvirida yangi badiiy ufqlarni namoyish etadi. Shoир yaratgan lirik qahramon kechinmalarida ko‘proq inson ruhiyati, uning olam ichra olam ekanligi teran usmonona murakkablik va ehtiros bilan tasvir etiladi.(Suvanova Jumagul,1995,83) Misol tariqasida Usmon Azimning “Baxshiyona” turkumidan o‘rin olgan bir she’rida Oqbotir va Qorabotir Elbek baxshiga shunday deydi: “Bo‘lar elning farzandi qanday bo‘ladi-yu, sho‘rlik elning farzandi qanday bo‘ladi - shunday aytинг“. Baxshi shunday qo‘shiq aytib yuboradi:

Har kim o‘z elida davron suradir,

Mardlar elin to‘g‘ri yo‘lga buradir.

Bular elning farzandlari botirlar,

Oyoqlarin kesishsa ham yuradir.

Mard dunyoga kelgan tuproq zo‘r bo‘lar,
Nomard oyoq bosgan zamin sho‘r bo‘lar.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

YANVAR

ANDIJON,2025

Sho‘rlik elning farzandlari, botirlar,
Ikki ko‘zi ochiq turib ko‘r bo‘lar. (Usmon Azim, 1995, 206)

She’rdan anglashilib turibdiki, Elbek baxshi kechinmalarida vataniga bo‘lgan muhabbat, o‘z yurtiga xiyonat qiluvchi nomard kimsalarga nafrat tuyg‘usi hukmrondir.

Halima Xudoyberdiyeva she’riyatining mavzu ko‘lami keng, teran. Uning she’rlarida ona-Vatan, ota-onas, ayol va bola mavzulari ustuvorlik qiladi. Halima Xudoyberdiyeva ruhiyati bu ayol qalbi matonati, yashash uchun kurashdagi jasorati!. U faqat o‘xhatish emas. Bu she’riyat ayol qalbi nidosi bo‘lib jarang sochadi.

Halima Xudoyberdiyeva ijodida chaqmoq kabi chaqnagan, momaqaldiroqdek gumburlagan, seldek toshib kelgan she’rlar talaygina. Lekin shoiraning mana shunday she’rlari orasida ayol muhabbati, uning qudrati, nozik qalb egasi ekanligini ko‘rsatuvchi she’rlar alohida mavqega ega. Halima Xudoyberdiyeva inson yuragiga yaqin mavzularning yangi-yangi qirralarini ocha boradi. U Nodirabegim, Uvaysiy, To‘marislар qiyofasiga kirdi. Halima Xudoyberdiyevaning baxshiyona she’rlaridan “Ko‘ngli yarim...“she’rini tahlilga tortadigan bo‘lsak, bu asar ta’sir quvvati, lirik kechinmaning mahorat bilan tasvirlangan, shu sbsb ham bu she’r shoiraning boshqa she’rlaridan o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ota-onas ajrashayotgan vaqtida hamma narsa o‘rtalarida talash bo‘ladi: uy ham, mebel ham. To‘g‘ri bu mol-mulkarni bo‘lish mumkindir, lekin, o‘rtadagi go‘daknichi? Bu satrlarni o‘qigan kitobxonni bevosita yuraklari titraydi, ko‘zlariga yosh keladi:

Qattol kurash ketar, jang-ki shiddatkor,
Har biri dengizdan tortar qa’riga.
O‘rtalikda bitta mitti go‘dak bor,
Hech iloj yo‘q shuni bo‘lmoqlariga.

Endi baxti nimadir, tolei nimadir,
Ota-onas uning boshiga yetdi.

Kim bilan qolsa ham ko‘ngli yarimdir,
Chunki yarim ko‘ngli uzoqlab ketti.(Halima Xudoyberdiyeva.2012.274)

She’rdagi holatni ijodkor hayotda ko‘p guvohi bo‘lgan, ushbu hodisadan ta’sirlangan shoira qalam olib yuqoridagi misralarni qog‘ozga solarkan, undagi lirik kechinmani o‘quvchiga osongina yuqtira oladi.

Halima Xudoyberdiyeva she’rlariga teranroq razm solsak, biron-bir she’ri boshqalarnikiga o‘xshamaydi. Uning she’rlarida qalbdan taralayotgan ayol muhabbati, mehri mujassamdir. Ayol bu ona, yaratuvchi, buyuk hilqat egasi. Uning qalbi nozik va shu noziklik qa’rida buyuklik mujassamdir. Ayol qalbining butun go‘zalligini, tarovatini ayolgina yaxshi his qila oladi.

Hamid Olimjon hayotda va ijodda xalq baxshilariga, umuman folklorga alohida mehr-muhabbat va samimiyl hurmat bilan qaradi. Buni biz Fozil shoirga bag‘ishlangan “Kuychining hayoli”, Abdulla shoir Nurali o‘g‘liga atalgan “Do‘mbiraning maqtovi” she’rlarida, “Oygul bilan Baxtiyor”, “Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod”, “Ikki qizning hikoyasi” kabi ertak dostonlarida yaqqol ko‘ramiz. “Kuychining xayoli” she’ri Hamid Olimjon tomonidan yozilgan bo‘lib, unda xalq baxshisi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining badiiy olami aks ettirilgan. Xalq og‘zaki ijodiga bolalik yillaridan mehr qo‘ygan shoir 30-yillaming o‘rtalarida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li singari baxshilani qayta qashf etib, ulaning “Alpomish” singari qahramonlik dostonlarini nashr etishda qatnashadi. “Kuychining xayoli” she’rida shoir ana shu rang-barang qahramonlarga, bir-biridan maroqli voqealarga boy olamni gavdalantirib bergen. Baxshi aytgan doston va termalarda xalq m a’naviy hayoti, tarixi, udumlari, orzu va intilishlari aks etganini; bu asarlar kitobxonga, xalqqa ruhiy oziq va madad berishini alohida ta’kidlab ko‘rsatgan: Kuy ko‘pdir, qo‘shiqlar millioncha jonni Qozg‘ata oladi, muhtaram padar! Ana shu kuychining jamiyatdagi,

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

YANVAR

ANDIJON,2025

xalq ma’naviy hayotidagi ushbu she’rda baxshiyona ohang va ranglarda ishonarli qilib ochib berilgan. (H Olimjon.1975-1984.108)

Xalq og‘zaki ijodida mahbubaning jang maydonlarida kurashayotgan yor ortidan borishi tasvirlangan asarlar Hamid Olimjon ijodida ko‘plab uchraydi. Shoir tomonidan yozilgan “Sevgi” she’rida ana shu an’anaviy sujetdan foydalanilgan. Ammo bu she’rdagi oshiq va ma’shuqa obrazlari Vatan urushi maydonlarida harakat etishi bilan real kishilarga aylanadilar. She’rda urush davri haqiqatining badiiy tajassum topishiga imkoniyat yaratadi. Shoir davr talabi bilanmuhabbat tuyg‘ulari va ishqiy kechinmalar tasvirini ham jang maydoniga ko‘chiradi. She’rda tasvirlangan qiz jangchi yori ortidan frontga yo‘l oladi. “Menga ne kerakdir bu yolg‘iz qolish? Sensiz ololmasman also men nafas”, deydi u va bosh olib, jang maydoniga ketadi: Balki uchrashmasmiz biz endi mangu, Bo‘samiz ham qolar balki sargardon. Lekin sevishganlar qaytmas o‘limdan, Lekin mangu qolar ikki tomchi qon. Lekin bu fojiali yakun ham ularni mardlik va jasorat yo‘li dan qaytarmaydi: Bug‘doy boshhog‘iday ko‘kka intilib, Men shunda tuproqdan ko‘tararman bosh. Sening qonlaringdan o‘sar qizil gul, Yoqutga aylanar soylardagi tosh. Dunyoni yoritar bizning sevgimiz. Ikkimiz hech o‘lmasmiz also... Hamid Olimjonning baxt sururidan mast bo‘lgan lirik qahram oni mustaqillik uchun kurashda o‘z baxtini ham, sevgisini ham qurban qilishga tayyor. Zero, uning uchun shaxsiy farog‘atdan ko‘ra xalq va yurtning taqdiri, istiqloli muhimdir. Uning butun she’riy ijodida o‘lg‘a surilgan g‘oyalar shu nuqtaga kelib, o‘zaro tutashadi.

Zamon bilan hamnafas shoir she’rlari mazmundor va bugungi hayot ohangini aks ettirayotgan go‘zal asarlardir. Baxshiyona ohangdagi she’rlari xalqona va o‘ynoqi xususiyati bilan alohida ajralib turadi. Bu xalqona va o‘ynoqilik zamirida juda katta falsafiy donishmandlik va ijodiy tajriba yotadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Halima Xudoyberdiyeva “Ilk muhabbat” kitobi. 1968-y. -B.11.
2. Hamid Olimjon. Mukammal asarlar to‘plami.10 томлик, T.: Fan, 1975-1984 yil.
3. Halima Xudoyberdiyeva. Buyuk qushlar. -Toshkent: O‘zbekiston, 2012.
4. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari G‘ Majmua. (1-jild) Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: N.Rahmonov. – T.: Fan, 2005;
5. Sirojiddinov Sh. O‘zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari. – T.: Yangi asr avlod, 2011.
6. Suvanova J. Hozirgi o‘zbek she’riyatida badiiy izlanishlar (Usmon Azim ijodi misolida). Fil.fan.nom.dis., - Samarqand, 2000.
7. Tohir Shermurodov. Usmon Azim ijodiyoti. – Toshkent, 2011. – 204 b.
8. Q.Mamiraliyev. Istiqlol davri o‘zbek she’riyatida janrlar modifikatsiyasi. - Toshkent: Anorbooks, 2024. – 208 b.